KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASINING SHAKLLANISH VA UNING ZAMONAVIY KOMPYUTER LINGVISTIKASIDAGI O‘RNI

Botirova Maftunaxon Maxammadtulqin qizi
Andijon davlat universiteti Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda kompyuter leksikografiyasining shakllanishi, an’anaviy lug‘atshunoslik bilan aloqasi hamda zamonaviy kompyuter lingvistikasidagi o‘rni yoritiladi. Elektron lug‘atlarning asosiy xususiyatlari, lingvistik ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash imkoniyatlari, shuningdek, ularning tabiiy tilni qayta ishlash, avtomatik tarjima va morfologik tahlil jarayonlaridagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. O‘zbek tilining grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda elektron lug‘atlarni takomillashtirish va boshqa lingvistik resurslar bilan integratsiyalash zarurati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kompyuter leksikografiyasi, an’anaviy lug‘at, elektron lug‘at, kompyuter lingvistikasi, elektron korpus, morfologik tahlil, avtomatik tarjima, lingvistik ma’lumotlar.

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, jamiyat hayotining turli sohalarida raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi hamda sun’iy intellektga asoslangan tizimlarning takomillashuvi tilshunoslik fanining nazariy va amaliy yo‘nalishlari oldiga yangi ilmiy vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, tabiiy tilni avtomatik qayta ishlash, elektron leksikografik resurslarni yaratish, katta hajmdagi matniy ma’lumotlarni lingvistik jihatdan qayta ishlash va korpus texnologiyalarini rivojlantirish zamonaviy kompyuter lingvistikasining muhim tadqiqot yo‘nalishlariga aylangan. Mazkur jarayonlarda kompyuter lug‘atlari va elektron til korpuslari tabiiy tilning leksik, grammatik, semantik hamda uslubiy xususiyatlarini raqamli shaklda aks ettiruvchi, lingvistik axborotni tizimlashtirish va undan samarali foydalanish imkonini beruvchi muhim vositalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarining ushbu sohada qo‘llanilishi tilshunoslarning, xususan, ta’lim va tarjima faoliyati bilan bog‘liq amaliy vazifalarini sezilarli darajada yengillashtirmoqda. Shu bilan birga, kompyuter leksikografiyasi elektron lug‘atlarni yaratish, ularning tuzilishi va ishlash tamoyillarini ishlab chiqish hamda ular bilan bog‘liq muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan yo‘nalish sifatida shakllangan.

Ma’lumki, leksikografiya yunoncha “lexikos” – “so‘z”, “lug‘at”, “grapho” “yozaman” degan ma’nolarni anglatib, tilshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri hisoblanadi [4]. Leksikografiya tilshunoslikning lug‘atshunoslik bilan bog‘liq yo‘nalishi bo‘lib, lug‘atlarning mazmuni, tuzilishi, yaratilish tamoyillari hamda ularni ishlab chiqish usullarini tadqiq etadi.

An’anaviy leksikografiya til birliklarini yig‘ish, tartibga solish va izohlash ehtiyoji asosida shakllangan. Turkiy xalqlar lug‘atchiligining muhim namunalaridan biri Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda yaratilgan “Devonu lug‘atit turk” asaridir. Unda turkiy so‘zlar jamlanib, ularning ma’nolari va qo‘llanish xususiyatlari yoritilgan.

An’anaviy leksikografiyaning rivojlanishida so‘zlarni yig‘ish va izohlashdan boshlab, ularni tanlash, me’yorlashtirish, tavsiflash hamda muayyan parametrlar asosida tizimlashtirishgacha bo‘lgan jarayonni kuzatish mumkin. Keyinchalik aynan shu tartibga solish va tizimlashtirish tamoyillari lug‘atchilikka axborot texnologiyalarining kirib kelishi bilan yangi imkoniyatlar kasb etdi.

Kompyuter leksikografiyasi tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda lingvistik va dasturiy ta’minot asosida ishlaydigan, kodlash va dekodlash prinsipi asosida yaratilgan kompyuter

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

lug‘atlari, ularni tuzish dasturlari, algoritmlari o‘rganiladi. Kompyuter leksikografiyasi elektron lug‘atlarning tuzilishi, uning izohliligi hamda so‘zga boyligi bilan bir qancha qulayliklar yaratadi. Zamonaviy amaliy leksikografiya taraqqiyotida quyidagi tushunchalarni o‘rganish, ularni o‘zaro farqlash alohida ahamiyat kasb etadi:

– tilshunoslik fanlari orasida kompyuter leksikografiyasining o‘rnini tushunish;
– elektron va an’anaviy bosma lug‘atlari o‘rtasidagi farqni ajratish;
– elektron lug‘atlar tuzishning eng samarali usul va tamoyillarini ishlab chiqish;
– turli xil dasturiy tizimlar va ularning tasnifi o‘rtasidagi farqni o‘rganish;
– dastur tomonidan tarjima qilingan tarjima misolida mashina tarjima tizimlarining ishlashini tahlil qilish va mazkur tarjima namunalarini shaxs tomonidan amalga oshirilgan tarjima bilan taqqoslash;
– yuzaga kelgan nomuvofiqliklarning sabablarini tahlil qilish [2].

Y.N.Marchukning fikricha, mazkur sohaning maqsadi elektron lug‘atlarning tarkibi va tuzilishi, leksik ma’lumotlarning tabiati va hajmi, mashina lug‘atlarini tuzish usullari, leksikografik ma’lumotlarni avtomatlashtirish usullari, mashina lug‘atlarining umumiy va xususiy jihatlarini o‘rganishdir. Ayni paytda hozirda bu turdagi lug‘atlar ayni bir termin ostida emas, balki “mashina lug‘ati”, “kompyuter lug‘ati”, “avtomatik lug‘at”, “elektron lug‘at” terminlari bilan yuritiladi [5].

Elektron lug‘atlarning imkoniyatlari faqat so‘zlar va ularning ma’nolarini saqlash bilan cheklanmaydi. Ular orqali kerakli so‘zni tez topish, uning izohi, sinonimlari va grammatik xususiyatlari bilan tanishish mumkin. Shuningdek, internet manbalari, matn namunalari va multimedia vositalaridan foydalanish orqali so‘zlar haqida qo‘shimcha ma’lumot olish imkoniyati mavjud. Bu esa elektron lug‘atlardan foydalanishni qulaylashtiradi va lingvistik ma’lumotlarni tezkor topishga yordam beradi.

Kompyuter leksikografiyasining kompyuter lingvistikasidagi o‘rni. Kompyuter leksikografiyasi kompyuter lingvistikasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki u tilga oid so‘zlar, ularning ma’nolari va grammatik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni elektron shaklda jamlaydi. Kompyuter lingvistikasida bu ma’lumotlardan turli dasturlar, algoritmlar va matnlarni avtomatik tahlil qilish jarayonlarida foydalaniladi. Shu sababli elektron lug‘atlar kompyuter lingvistikasining rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu sohaning kompyuter lingvistikasidagi o‘rni hamda amaliy ahamiyati quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va avtomatik analizatorlar: Kompyuter leksikografiyasi mahsulotlari (XML, JSON, LMF formatidagi leksik bazalar hamda relyatsion ma’lumotlar bazalari) morfologik, sintaktik va semantik analizatorlar uchun asosiy lingvistik ta’minot vazifasini o‘taydi. Morfologik va sintaktik tahlilda so‘zning gapdagi o‘rni va kontekstual ma’nosi aynan leksikografik bazalar orqali aniqlashtiriladi [1].

Mashina tarjimasi (MT) va avtomatik tahrir: Mashina tarjimasi hamda imlo tekshirish (Spellchecker) dasturlarining aniqligi va samaradorligi bevosita lug‘at bazalarining mukammalligiga bog‘liqdir [3].

Avtomatik lug‘at hosil qilish va matn tahlili: Matnlarga avtomatik ishlov berish natijasida yaratiladigan alifboli, chastotali hamda chappa (ters) lug‘atlar tabiiy dildagi matnlarni statistik hamda leksik-grammatik tahlil qilishning dastlabki modullari hisoblanadi [3].

Semantik tezauruslar va ontologik modellar: WordNet va UzNet (o‘zbek tili WordNeti) kabi elektron tezauruslarni modellashtirish kompyuter leksikografiyasida so‘zlar o‘rtasidagi giperonimik,

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.



giponimik, sinonimik hamda antonimik munosabatlarni raqamli aks ettirish orqali sun’iy intellekt va savol-javob tizimlari uchun intellektual yadro vazifasini o‘taydi.

Xulosa qilib aytganda, kompyuter leksikografiyasi an’anaviy lug‘atshunoslikning texnik davomi emas, balki kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi va sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uzviy integratsiyalashgan, raqamli jamiyatda til ma’lumotlarini saqlash, qayta ishlash hamda uzatishning markaziy ilmiy-amaliy tarmog‘idir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Toshkent, 2021. – B. 40-42.
2. Abduraxmonova N, Jo‘raqulova M, Qodirova Z. Kompyuter leksikografiyasi (darslik) – Toshkent: O‘zMU, 2025. – B. 8.
3. Karimov S.A. Avtomatik lug‘at hosil qilish algoritm va dasturlari. – Navoiy, 2021. – B. 129-132.
4. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 79.
5. Мисак Р. Компьютерные словари: классификация и укладка // Проблемы украинской терминологии (сборник научных трудов). – Киев, 2008. – С. 52-55.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.